

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetini tamomlagan kadrlar to‘g‘risida ma’lumot

Universitet 1948-yilda Toshkent davlat chet tillari pedagogika instituti sifatida tashkil topgan bo‘lib, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 12-maydagi 401-sonli Farmoniga muvofiq Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika instituti va Toshkent davlat chet tillar pedagogika institutlarining qo‘shilishi natijasida O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O‘zDJTU) maqomi berilgan.

Universitet tashkil topgandan buyon bizning universitetimizni tugatgan va turli sohalarda faoliyat yuritayotgan universitetimiz faxrlari:

A’LOYEV BAXROMJON JO‘ABOYEVICH

1985-yilda Toshkent Davlat chet tillar institutini tamomlagan. 1993-1995-yillarda O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universitetida katta o‘qituvchi bo‘lgan.

2023-yil 29-dekabrdan O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining birinchi o‘rindbosari favqulodda va Muxtor Elchi diplomatik martabasiga ega.



Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich

2005 yilda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti bakalavriatini, 2007 yilda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistraturasini tugatgan.


2023 yil sentyabridan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori vazifasida faoliyat yuritmoqda.



BEKMURODOV BOBUR MANSUROVICH

2008 yilda O‘zbekiston davlat jahon tillari Universitetini tugatgan.

2009 yildan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasi a’zosi



Normurodova Nozliya Zarilovna

2009-yilda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistratura bo‘limini lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan. Filologiya fanlari doktori, dotsent. Normurodova Nozliya Zarilovna 2021- yildan ToshDO‘TAU xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori lavozimida ishlab kelmoqda.

Xoliqov Bahodir Alikulovich

2011-yilda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistratura bo‘limini lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.B.Xoliqov 2024 yildan buyon Samarqand davlat chet tillar institute rektori lavozimida ishlab kelmoqda.





Ashurov Alisher Abdumavlonovich

2003-yil O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti magistraturasini tugatgan. Hozirda Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor, PHD.

Kulmatov Baxrom Gulyamovich

1992 yilda Toshkent davlat chet tillar pedagogika institutini tamomlagan.

1992-2023 yillarda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida turli lavozimlarda ishlagan. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz tili ikkinchi fakulteti dekani.



Bakieva Gulandom Xisamovna

1971 yilda Toshkent davlat chet tillar pedagogika institutini tamomlagan.

2023 yildan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tahririy-nashriyot bo‘limi “Filologiya masalalari” jurnali bosh muharriri.



Madraximov Tulibay Abdulkarimovich

1992 yilda Toshkent davlat chet tillar pedagogika institutini tamomlagan.

2023 yildan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tilini o‘qitish metodikasi №2 kafedrasи mudiri





Norboyeva Dilshoda Abdunasimovna

2006-yilda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetini tamomlagan.

2023-yildan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi boshlig‘i.

Xakimov Xamidullo Inamovich

1999-yilda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetini tamomlagan.

2023 yildan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti roman-german filologiyasi fakulteti dekani.



Temirova Shaxlo Raxmonovna

2008-y. O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetini tamomlagan.

2019-2021-yillarda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti (PhD)

2023- yildan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari

Nishonov Patxiddin Payziboevich

1993-yil O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetini tamomlagan.

2023 yildan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti fransuz tili amaliy fanlar kafedrasi mudiri

